TA'LIM JARAYONIDA INNOVATSION DARS VA UNGA QO'YILADIGAN TALABLAR

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Pedagogika fakulteti "Pedagogika" yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Ikromova Muqaddas Norboyevna

muqadasikromiva@gmail.com, +99877 739 05 04

Ilmiy rahbar: **Jamoldinova Sayyora Nodirbek qizi**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Pedagogika fakulteti "Pedagogika" kafedrasi o'qituvchisi

ORCID ID: https://orcid.org/0009-0006-4669-0483

s.jamoldinova@cspu.uz, +998917766446

Chirchiq,O'zbekiston

Annotatsiya. Maqolada bugungi kun yoshlarini darsga jalb etish va zamonaviy darslarni tashkil etish to'g'risida gapirilgan. Shu jarayonda zamonaviy darslarga qo'yiladigan talablar, dars tashkil etishdagi mantiqiylik va izchillilik va usullar yoritib beriladi.

Kalit so'zlar. Innovatsion, dars, talab, mahorat, didaktik talablar, metodlar, texnologiya, zamonaviy dars turlari, aralash dars, umumlashtiruvchi dars

Аннотация. В статье рассматривается участие современной молодежи в учебном процессе и организация современных уроков. В этом процессе освещаются требования к современным урокам, логичность и последовательность организации уроков, а также методы.

Ключевые слова: инновационный, урок, требование, навык, дидактические требования, методы, технологии, современные типы уроков, смешанный формат урока, урок на обобщение.

Abstract. In this article, we will talk about the involvement of today's youth in the lesson and it was said about the organization of modern classes. Modern in the same processrequirements for classes, logic and consistency in the organization of classes and methods are illuminated.

Keyswords. Modern, lesson, demand, skill, didactic requirements, methods, technology, modern lesson types, mixed lesson, generalizing lesson.

KIRISH.

Keyingi yillarda ta’lim tizimidagi islohotlar, asosan, O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha 2017-2021 yillarga mo‘ljallangan,Harakatlar strategiyasida belgilangan «…ta’lim tizimini takomillashtirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish»1ga doir g‘oyalar asosida olib borilmoqda. Har bir sohada ilg‘or innovatsiyalarni yaratish bugungi kun ilm ahlining asosiy maqsadidir.Har qanday milliy til kabi o‘zbek tili ham o‘zbek millatini birlashtiruvchi, uning milliy ruhini ifodalovchi vositadir. Chunki Respublikamizning birinchi

Prezidenti ta’kidlaganidek: “Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili bu millatning ruhidir. Ona tilini yo‘qotgan har qanday millat o‘zligidan judo bo‘lishi muqarrar”.Prezidentimiz tashabbusi bilan mamlakatimizda yetakchi soha va tarmoqlarni innovatsion rivojlantirish, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga keng joriy etish yuzasidan izchil ishlar amalga oshirilmoqda.

METODOLOGIYA.

Davlatimiz rahbarining 2017-yil 29-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to‘g‘risida”gi farmoni bu boradagi ishlarni yangi bosqichga ko‘tarishga xizmat qiladi. prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Xalqimiz dunyoqarashida innovatsiya muhitini yaratish eng muhim vazifamizdir. Innovatsiya bo‘lmas ekan, hech bir sohada raqobat, rivojlanish bo‘lmaydi.

Mamlakatimiz birinchi prezidenti I.A.Karimovning “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”.asarida, odamlarda ko‘nikma paydo qilmasak, bugungi davr shiddati, fantexnikaning mislsiz yutuqlari bilan hamqadam bo‘lolmaymiz", degan edi. O‘qituvchi innovatsion texnologiyalarga asoslanib darsni tashkil etar ekan, turli texnik vositalardan ham (kompyuter, proyektor, elektron doska vahokazo) foydalanishi mumkin. O‘qituvchining faoliyatida innovatsiyalar qanchalik ko‘p bo‘lsa, mazmun shunchalik oshadi. Ta’limda innovatsion texnologiyalar va interfaol metodlar haqidagi tasavvurlar barqaror va mukammal shaklga ega emasligini ham e’tirof etish kerak. Har bir o‘qituvchi ta’limga individual tarzda yangilik kiritishi mumkin. Innovatsion texnologiyalar o‘qituvchi o‘z faoliyatidan qoniqmaslikdan kelib chiqadi.Zamonaviy dars - bu aynan o‘quvchilarning bilish darajasi rivojlanib, ularni atrofdagi haqiqatni faol ravishda idrok etishga, sabab-ta'sir munosabatlarini tushunishga va topishga, mantiq, fikrlash va muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga undaydi. Zamonaviy darsning maqsadi aniq va o‘lchovli bo‘lishi kerak. Maqsadni dars natijasi bilan aniqlash mumkin. Darsning yangi ta'lim maqsadlariga o‘quvchilar o‘zlari tomonidan tuziladigan va shaxsan o‘zi uchun muhimligini anglaydigan maqsadlar kiradi.

MUHOKAMA

Zamonaviy innovatsion dars mashg'ulotlar, suhbatlar, video-munozaralar, ishbilarmonlik va rol o‘ynash o‘yinlari, ochiq savollar, aqliy hujum va boshqalar kabi mashg'ulot usullari va o‘qitish usullaridan foydalanish bilan ajralib turadi.

Darsga qo‘yiladigan zamonaviy tarbiyaviy talablar: O‘quvchilarda mustaqil fikr yuritishni, eng yaxshi axloqiy sifatlarni, olgan bilimini hayot bilan bog‘lay olishni,Vatanni uning tarixi,

madaniyati, urf – odatlarini, eng asosiysi, insonni hurmat qilishni,ilmiy dunyoqarashni, iqtisodiy, huquqiy, ekologik madaniyatni tarkib toptirishni tarbiyalash kerak.

Darsga qo‘yiladigan psixologik talablar: O‘quvchilarning individual psixologik xususiyatlarini bilgan holda ularda xotira, ongli idrok etishni, mustahkam irodani, tasavvur qila olishni, o‘quvchilarda davlat ta’lim standartlari qo‘ygan talablarni ular yoshiga mosligini hisobga olishni ta’minlashdan iboratdir.

Darsga qo‘yiladigan gigienik talablar: Sinfdagi havo harorati, yorug‘lik miqdori, uning tozaligi, estetik did bilan jihozlanishi o‘quvchilarga beriladigan topshiriqlarning ular yoshiga mosligini hisobga olish kabilarga rioya qilish shart.

Zamonaviy innovatsion darsga qo‘yilgan didaktik talablar: Darsning ta’limiy-tarbiyaviy maqsadini aniqlash, dars mavzusini qiziqarli, ilmiy faktlar bilan belgilash, dars mavzusining mohiyatini o‘quvchilarning o‘zi mustaqil fikrlab o‘zlashtirishga erishish, Darsda barcha o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlash, o‘quv materiallarini o‘quvchilar tomonidan sodda tarzda qabul qilishga, hayot bilan chambarchas bog‘lashga erishish, mavzu mazmuniga mos ta’lim metodlarini tanlash va ulardan ko‘proq o‘quvchilarning foydalanishiga erishish, mavzu mazmuniga mos ta’lim metodlarini tanlash.

Bu metodlar asosan qisman izlanish hamda izlanish darajasiga bo‘lishi zarur. O‘quvchilarning bilim manbalari bilan mustaqil ishlashga o‘rgatib boorish, O‘quvchilarning dars mazmuniga mos ravishda milliy istiqlol mafkurasi, o‘z tarixi, tili, urf – odatlari hamda boy madaniyatimiz bilan faxrlanishga o‘rgatish, dars mavzusini boshqa o‘quv fanlari bilan asoslanib o‘rganish, dars mavzusini o‘lkashunoslik tamoyiliga bog‘liqligini ta’minlash, o‘quvchilarda dars mavzusiga mos ravishda iqtisodiy, huquqiy, ekologik madaniyatni tarkib toptirish, darsda davlat ta’lim standartlariga o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalariga qo‘yilgan talablarni to‘liq bajarishga erishish, o‘quvchilar o‘zlashtirgan bilim sifatini xolisona baholanishiga erishish.Dars ta’lim jarayonining yaxlitligi nuqtayi nazaridan ta’limning asosiy tashkiliy usuli hisoblanadi. Unda sinf-dars tizimining xususiyatlari aks etadi, unda o‘quvchilarni ommaviy qamrab olish, tashkiliy tartib va o‘quv ishlarining muntazamligi ta’minlanadi.Dars iqtisodiy jihatdan foydalidir. O‘quvchilar hamda sinf jamoasining individual xususiyatlarini bilishi o‘qituvchi uchun har bir o‘quvchi faoliyatiga rag‘batlantiruvchi ta’sir ko‘rsatishga imkon beradi. Dars doirasida ommaviy, guruhli va individual ta’limshakllarini birlashtirish imkoniyati uning rad etib bo‘lmaydigan ustunligi hisoblanadi. Dars bevosita o‘qituvchi rahbarligida aniq belgilangan vaqt davomida muayyano‘quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta’lim jarayonining asosiy shakli sanaladi. Darsda har bir o‘quvchi xususiyatlarini hisobga olish, barcha o‘quvchilarningmashg‘ulot jarayonida o‘rganilayotgan fan asoslarini egallab olishlari, ularning idro ketish qobiliyatlari va ma’naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalash hamda rivojlantirish uchun qulay sharoitlarni yaratiladi.

XULOSA

Darsning tuzilishi oddiy va ancha murakkab bo‘lishi mumkin. Bu o‘quv materialining mazmuni, darsning didaktik maqsadi, o‘quvchilar va jamoa sifatida sinfning xususiyatlariga bog‘liq.

Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilar yoshlarini hisobga olib o‘quv ishlari turli xillaridan foydalanishga, yangi bilimlarni berishni avval ilgari o‘rganilganni mustahkamlash, takrorlash

bilan birga olib borishga to‘g‘ri keladi. Hatto tekshirish darslari ham bu yerda ko‘pincha ishlar boshqa turlarini o‘z ichiga oladi: materialni og‘zaki yetkazish. qiziharli hikoyani o‘qish. Darsning aynan mana shu turi aralash (kombinatsiyalashgan), yoki murakkab tuzilishli deb ataladi. Kombinatsiyalashgandarsning taxminiy tuzilishi:uy vazifalarini tekshirish va o‘quvchilar bilan savol-javob,yangi materialni o‘rganish, o‘zlashtirishini dastlabki tekshirish, mashq misollari davomida yangi bilimlarini mustahkamlash, ilgari o‘rganilganlarni suhbat ko‘rinishida takrorlash, o‘quvchilar bilimlarini tekshirish va baholash, uyga vazifa berish.

Zamonaviy innovatsion darsga qo‘yladigan talablar

1 Fanning ilg‘or yutuqlari, pedagogik texnologiyalardan foydalanish, darsni o‘quv tarbiyaviy jarayon qonuniyatlari asosida tashkil etish.

2 Darsda barcha didaktik tamoyil va qoidalarning optimal nisbatlarini ta’minlash.

3 O‘quvchilarning qiziqishlari, layoqati va talablarini hisobga olish asosida ular tomonidan bilimlarning puxta o‘zlashtirilishi uchun zarur sharoitlarni yaratish.

4 O‘quvchilar anglab yetadigan fanlararo bog‘liqliklarni o‘rnatish. o'zlashtirishdarsi aralash dars mustahkamlash va takrorlash darsi.

5 Ilgari o‘rganilgan bilim va malakalari, shuningdek, o‘quvchilarning rivojlanish darajasiga tayanish.

6 Shaxsning har tomonlama rivojlantirishni motivatsiyalash va faollashtirish;

7 O‘quv-tarbiyaviy faoliyat barcha bosqichlarining mantiqiyligi va emotsionalligi.

8 Pedagogik vositalardan samarali foydalanish.

9 Zarur bilim, ko‘nikma va malakalar, fikrlash va faoliyat ratsional usullarini shakllantirish.

10 Mavjud bilimlarni doimo boyitib borish ehtiyojini yuzaga keltirish.

11 Har bir darsni puxta loyihalashtirish, rejalashtirish, tashxis va taxmin qilish.

Xullas, mustaqillikning dastlabki yillaridayoq “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunining qabul qilinishi ta’lim sohasida muhim qadambo‘ldi. Har bir ijtimoiy tuzum kelajagi, insoniyat istiqboli, kishilarning hayot va turmush darajasi fan va madaniyat taraqqiyoti bilan bevosita bog‘liqdir. Fan va madaniyatning rivojlanishi esa ta’lim-tarbiya ishlarining qay yo‘sinda olib borilishidan kelib chiqadi. Shu bois mamlakatimizning istiqlol yo‘lidagi birinchi qadamlaridanoq buyuk ma’naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, milliy ta’lim-tarbiya tiziminitakomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, demografik va boshqa milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda kuchli ijtimoiy siyosat olib borish yoshlarning zamon talablari bilan uyg‘unlashtirish asosida jahon andozalari darajasiga chiqarishga katta ahamiyat berib kelinmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш. Мирзиёевнинг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сон «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги Фармони
2. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –Toshkent, 2008, 86-b.
3. Nazarova S. O'zbek tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1992. – B 85. 4-bet.
4. Qosimova N. Ona tili ta'limi va yangi pedagogiktexnologiyalar. Buxoro, 2009, 103
5. Jamoldinova S.N. "O'qituvchining konfliktalogik tayyorgarligining kasbiy faoliyatidagi ahamiyati". // Namangan davlat pedagogika instituti "Ta'lim va taraqqiyot" ilmiy-uslubiy jurnali. 2024-yil 6-son. ISSN: 2992-9008. UDK: 37, 44-50 b.(13.00.01 № 37, 045044)
6. Jamoldinova S.N. "Oliy ta'lim talabalarida konfliktologik kompetensiyani shakllantirish va uni rivojlantirish mexanizmlari", Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning muammolari va istiqbollari – respublika ilmiy-amaliy konferensiya. 2024- yil 27- noyabr, 116-122 betlar.
7. Jamoldinova S.N., Sharaxmatova A.K. "Neyropedagogika" oliy ta'lim muassasasi talabalari uchun. Darslik -T.: "Zebo Print", 2025.-156 b.
8. Jamoldinova S.N. "Bo'lajak o'qituvchilarning konfliktologik madaniyatini rivojlantirish" Monografiya.-T.: "Zebo Print", 2025.-118 b.
9. Jamoldinova S.N. "Norms of teacher-student relationship to prevent conflict".// International Interdisciplinary Research Journal (Giirj)". Issn: 2347-6915 SJIF Impact Factor: 7,472. Volume 9, Issue12, December, 2021 p. 1007-1009.
10. Jamoldinova S.N. "Methods of resolving ethical conflicts in pedagogical activity".// International journal of advanced research in management and social sciences. Impact Factor: 7,624, Volume 11, Issue 5, may 2022, 221-227.
11. www.ziyonet.uz
12. www.edu.uz